



2018 yilning yanvar – dekabr oylarida QURILISH ISHLARI



Qurilish ishlari hajmi

– 47260,7 mlrd. so`m

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi

– 33,4 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi

– 39,2 %

Norasmiy sektor ulushi

– 27,4 %

O`zbekistonda qurilish faoliyati investisiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida O`zbekiston Respublikasida jami 47260,7 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 109,9 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 15802,4 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 33,4 %ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari qurilish ishlari hajmining 39,2 %i yoki 18536,1 mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 117,2 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 27,4 % yoki 12922,2 mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi.



Yirik pudrat tashkilotlari

hajmi -
15802,4 mlrd.so`m

o`shish sur`ati -
105,5 %

ulushi - 33,4 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

hajmi -
18536,1 mlrd.so`m

o`shish sur`ati -
117,2 %

ulushi - 39,2 %


Norasmiy sektor

hajmi -
12922,2 mlrd.so`m

o`shish sur`ati -
105,5 %

ulushi - 27,4 %

Yanvar - dekabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,2 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko`paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,1 %ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,7 % to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.



Yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 31,8 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko`paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 33,9 % (0,9 % punktga ko`payish) va norasmiy sektorning ulushi 34,3 %ni (1,7 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabrida faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 31,8 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 33,9 %
- Norasmiy sektor - 34,3 %

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 51,7 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 43,9 %
- Norasmiy sektor - 4,4 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 26,9 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 73,1 %

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 51,7 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 43,9 % (0,4 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 4,4 %ni (0,2 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,3 % punktga kamaydi va 26,9 %ni tashkil etdi. Qolgan 73,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,3 % punktga ko'paydi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari

mlrd.so`m

	Qurilish ishlari, xizmatlar - jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O`zbekiston Respublikasi	47260,7	36977,1	5238,2	5045,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1831,5	1236,9	217,7	376,9
viloyatlar:				
Andijon	2442,5	1931,4	145,3	365,8
Buxoro	3231,0	2279,4	426,9	524,7
Jizzax	1273,4	999,6	193,0	80,8
Qashqadaryo	3458,2	2731,7	254,3	472,2
Navoiy	2004,6	1746,4	141,6	116,6
Namangan	1917,7	1370,8	284,7	262,2
Samarqand	2918,5	2432,1	320,6	165,8
Surxondaryo	2366,9	1632,2	606,4	128,3
Sirdaryo	733,3	523,1	135,6	74,6
Toshkent	2543,2	1974,0	307,1	262,1
Farg`ona	2682,7	2139,8	173,1	369,8
Xorazm	1748,5	1408,3	206,9	133,3
Toshkent sh.	8765,1	5227,8	1825,0	1712,3

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, %




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 18536,1 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 39,2 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 %ga ko'paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 15802,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 33,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 27,4 %i yoki 12922,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlarining o`sinh sur`atlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo`yicha tarkibida Navoiy viloyati (hududdagi qurilish hajmining 29,3 %ini tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 marta qurilish ishlari ko`p bajarilgan), Toshkent shahri (mos ravishda, 28,0 % va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 104,7 %ni tashkil etdi) va Toshkent viloyati (mos ravishda, 25,6 % va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 131,9 %ni tashkil etdi) yetakchilik qilmoqda.

Hududlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida (hududdagi qurilish hajmining 1,7 % ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,7 %ni tashkil etdi), Andijon viloyatida (mos ravishda, 3,6 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,0 %ni) va Sirdaryo viloyatida (mos ravishda, 7,5 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,4 %ni tashkil etdi) kuzatildi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Navoiy viloyati

Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Navoiy viloyatida (128,5 %) kuzatildi.


- "Auminzo-Amantay" konida oltin-ma'danli rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich);
- "Amudaryo-Zarafshon" suv o'tkazgichining 3-bo'ginini qurish, nasos stantsiyalarini rekonstruktsiya qilish;
- "Ko`kpatas" va "Daugiztau" konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish.


Toshkent viloyatidagi (110,1 %) yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining oshishiga:

- Bo`stonliq tumanida GES, hamda harbiy shaharcha qurilishi bo`yicha qurilish ishlari;
- Toshkent viloyati hududida yangi avtomobil yo`llari qurilishi, kapital va joriy ta`mirlash.



Hududlar kesimida qurilish ishlari, %da





Toshkent shahrining yuqori o`shish sur`atga – 110,6 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirg`ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- “Angren-Pop” temir yo`l liniyalarida to`siqlar o`rnatish;
- “Milliy bog” dam olish maskanini O`zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi bog`iga rekonstruksiya qilish kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56